

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi [Internet]. [kirish sanasi: 2025-yil 12-aprel].

Mavjud: <https://lex.uz>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi. PQ-3857-son qaror. 2020-yil 20-oktabr. [Internet]. [kirish sanasi: 2025-yil 12-aprel]. Mavjud: <https://lex.uz>

4. Alimov R., Jo'rayev M. O'zbekistonda ta'lim islohotlari: an'anaviylik va innovatsiya uyg'unligi. – Toshkent: Innovatsiya, 2021. 204 b.

5. Aminova N. Jadid maktablarida ta'lim mazmuni va metodikasi. – Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti, 2014. 125 b.

6. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. 312 b.

7. Bobomurodov R. Zamonaviy ta'limda tarixiy merosning o'rni. // Pedagogika fanlari axborotnomasi. 2020;(4):33–39.

8. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. – New York: Macmillan, 1916.

9. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 176 b.

10. Mirvaliyev B. Mahmudxo'ja Behbudiy va milliy uyg'onish. // O'zbek tili va adabiyoti. 2018;(3):58–64.

11. Qodirov N. Jadid pedagogikasining nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. 147 b.

12. Saidov A. O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyotida jadidchilik harakati. – Toshkent: Fan, 2010. 198 b.

13. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO, 2017.

УДК 72.03

EKOLOGIK-ESTETIK MUVOFIQLIK TAMOYILLARI ASOSIDA TABIIY LANDSHAFTLARNING O'RNI VA SHAHARSOZLIK STRATEGIYASI

Mamajanova.Z.A

Toshkent arxitektura qurilish universiteti

1-kurs tayanch daktaranti (PHD) talabasi

АННОТАЦИЯ: *Ushbu maqolada shaharlarning jadal o'sishi va urbanizatsiya jarayonining ekologik va estetik oqibatlari tahlil qilinadi. Xususan, Toshkent viloyati misolida shaharsozlik ehtiyojlari uchun olib borilayotgan qurilishlar tabiiy landshaftlarning qisqarishi va ekotizimlar barqarorligining izdan chiqishiga sabab bo'layotgani ko'rsatib o'tiladi. Landshaft arxitekturasi nazariyasiga ko'ra, shahar muhitining ekologik, estetik va madaniy xususiyatlarini muvofiqlashtirish orqali hududlarning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.*

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

АННОТАЦИЯ: В статье анализируются экологические и эстетические последствия быстрого роста городов и процесса урбанизации. В частности, на примере Ташкентской области показано, что градостроительное строительство приводит к сокращению природных ландшафтов и нарушению устойчивости экосистем. Согласно теории ландшафтной архитектуры, устойчивое развитие регионов может быть достигнуто путем гармонизации экологических, эстетических и культурных характеристик городской среды.

ABSTRACT: The article analyzes the ecological and aesthetic consequences of rapid urban growth and the process of urbanization. In particular, using the example of the Tashkent region, it is shown that urban development leads to a reduction in natural landscapes and disruption of the sustainability of ecosystems. According to the theory of landscape architecture, sustainable development of regions can be achieved by harmonizing the ecological, aesthetic and cultural characteristics of the urban environment.

Shaharning tez o'sishi va shahar rivojlanishining kengayishi sharoitida ekologik va estetik masalalar shaharsozlikda eng muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Landshaft arxitekturasining markaziy vazifalaridan biri bu hududlarning ekologik, estetik va madaniy xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladigan tabiiy muhit bilan uyg'un va o'zaro bog'liqlikdir. Markaziy Osiyoning boshqa jadal rivojlanayotgan hududlari kabi Toshkent viloyatida ham shaharsozlik ehtiyojlari uchun olib borilayotgan qurilishlar natijasida tabiiy landshaftlarning faol rivojlanishi keskin kamayib ketayotganligi kuzatilmoqda, bu esa muqarrar ravishda ekotizimlarning yomonlashuviga va shahar muhiti sifatining pasayishiga olib keladi. Toshkent viloyatlarida va Qishloq xo'jaligi hududlarida insonning ko'p asrlik faoliyati natijasida paydo bo'lgan tabiiy va madaniy landshaftlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadigan qishloq hududlarining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Har qanday hududning rivojlanishi ikki tamoyil - funksional muvofiqlik va pozitsion muvofiqlik uyg'unligiga bo'ysunadi. Bu tamoyillarga ko'ra hududiy jihatdan qishloq xo'jalik yerlari va urbanizatsiyalashgan sanoat rayonlariga bo'linadi.

Urbanizatsiya deb shaharlarning o'sishi, dunyoda, mamlakatda, mintaqada shahar aholisi sonining ko'payishi, shaharlarning yanada murakkab tarmoqlari va yangi tizimlarining paydo bo'lishiga aytiladi. Demak, urbanizatsiya shaharlarning jamiyat hayotidagi rolini oshirish, uni mehnat xarakteri, aholining turmush tarzi va madaniyati, ishlab chiqarishni joylashtirish xususiyatlariga ko'ra asta-sekin shaharga aylantirishning tarixiy jarayonidir.

Shaharni qishloq muhitidan farqli o'laroq, ular hayotni ta'minlash funksiyalarini to'liq bajaradi. Bu joy inson foydalanadigan ko'plab ne'matlar manbai bo'lib xizmat qiladi (tabiiy resurslar, yashash joyi, rekreatsiya madaniy hordiq chiqarish obyekti shular jumlasidandir).

Qishloq hududlari shahar hududiga nisbatan katta qismini egallaydi. Ularda xam yashovchi aholiga qulayliklar yaratish maqsadida urbanizatsiya ya'ni qishloq markazlarining kengayishi

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

xizmat ko'rsatish binolari, turar-joy va sanoat maydonlarining ko'payishi qolaversa yer resurslaridan noratsional foydalanilishi ham sezilarli darajada ko'rinib turibdi. Buning oqibatida shaharning tabiiy landshaf qismimining yo'qolib borishiga va ekologik ahvolini yomonlashishiga olib kelmoqda. Ko'zga ko'rinmas o'zgarishlar inson salomatligiga, psixikasiga asta sekinlik bilan o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Afsuski ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilari va is gazlarini atrof muxitni zararlashlari dilni xira qiladi.

Soxa mutahasislari tomonidan keltirilgan so'ngi statistic ma'lumotlarga ko'ra respublikadagi asosiy sanoat tarmoqlarida zararli birikmalarni ushlab qolish va zararsizlantirish talab darajasida emas. Korxonalarda chang-gaz tozalash qurilmalari bilan taominlanganlik 85% ni tashkil qiladi va ularning ishi samaradorligi 70,86% bo'lib, qurilmalarning 77% eskirgan va yaxshi ishlamaydi. Korxonalar uchun xavoni belgilangan miqdordan ortiqcha ifloslagani xollarida to'lov va jarimalar belgilangan.

Sanoatda atmosferaning ifloslanishini kamaytirish uchun:

- Yangi tozalash qurilmalarini ishga tushirish va samaradorligini oshirish;
- Kam chiqitli va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish;
- Zararli korxonalarni chetga chiqarish va boshqa tadbirlarni amalga oshirish zarurdir.

Avto transport kompleksi xavoni ifloslovchi asosiy manba hisoblanadi va atmosfera ifloslanishining 70% ga yaqinini tashkil qiladi. Asosiy ifloslovchi birikmalar is gazi, azot oksidlari, uglevodorodlar, benz(a)piren, aldegidlar va qo'rg'oshin hisoblanadi. Transport bevosita havoni ifloslaydi, insonlar organizmida qo'rg'oshin va boshqa zaxarli va kanserogen birikmalarning to'planishiga sabab bo'ladi.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farna shaxarlarida xavo ifloslanishining 80%dan ortiq avtotransport is gaziga to'g'ri keladi. O'zbekistonning boshqa yirik shaxarlarida ham xavo ifloslanishida transportning is gazi ortib bormoqda. Bunga sabab etil qo'shilgan benzin va tarkibida oltingugurt ko'p bo'lgan dizel yoqilg'isi (solyarka)dan foydalanish hisoblanadi. Mamlakatimiz 'ududi Rossiya, Tojikiston, qozoiston va boshqa qo'shni mamlakatlardan keladigan zararli birikmalar bilan chegaralar aro ham ifloslanadi. Surxondaryo viloyatida Tojikiston alyuminiy zavodining ta'sirida xavoning ishg'orli birikmalar, oltingugurt oksidi, azotli birikmalar bilan ifloslanishi kuzatishimiz mumkin.

Ushbu muammolarni tubdan hal qilish maqsadida yurtimizda Ekologik ekspertiza inson salomatligini saqlash, ekologik xavfsizlikni taominlash maqsadlarida amalga oshiriladi. O'zbekistonda 2000-yili «Ekologik ekspertiza to'risida» qonuni qabul qilingan. O'zbekistonda ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha maxsus milliy dastur ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PF-81-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi, 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida” gi

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-son “2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi qarori va boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda bir qator izlanishlar va reja asosida bajarilayotgan vazifalar mavjud.

O'zbekistonda ekologik vaziyatni yaxshilash yo'llari.

O'zbekiston respublikasida tabiatni muxofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasida quyidagi strategik ishlar rolib borilmoqda: Aholining salomatligini taaminlash uchun qulay sharoit yaratish biosferaning muvozanatni saqlash; O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va barqarorligini ko'zlagan xolda tabiiy resurslardan foydalanish, qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va isteomol jarayonlarining muvozanatini saqlash, tiklanmaydigan resurslardan, ishlab chiqarish chiqindilaridan oqilona foydalanish; tirik tabiatning dastlabki turlari va ularning genofondini, landshaftlarning xilma-xilligini saqlash.

Landshaft arxitekturasini - bu tabiiy elementlarni shahar muhitiga integratsiyalash orqali urbanizatsiyaning salbiy oqibatlarini minimallashtirishga yordam beradigan fan. Barqaror rivojlanish tamoyillarini qo'llash, biofil dizayn va ekologik toza materiallardan foydalanish bizga ekotizimlarni saqlash, mikroiklimni yaxshilash va shahar atrof-muhitining vizual jozibadorligini oshirish imkonini beradi. Peyzaj, suv ob'ektlari va yashil yo'laklar kabi tabiiy elementlarning kiritilishi hayot sifatini yaxshilaydigan uyg'un makonni yaratishga yordam beradi. Shahar va qishloqlar hududlarini rivojlantirishdan maqsad qishloq va o'rmon xo'jaligini, mahalliy sanoat va hunarmandchilikni, turizmni, umuman mintaqaning va munitsipal darajadagi rivojlanishiga ko'maklashish, tabiiy yashash muhitini saqlash va boyitish. Bularning barchasi qishloq aholisining moddiy farovonligi, ijtimoiy va madaniy ta'minotining o'sishiga xizmat qilmoqda

Tabiiy landshaftlarni integratsiyalashni amalga oshirilishi qishloq hududlarining hayot va iqtisodiy faoliyatning mustaqil markazlari sifatidagi jozibadorligini oshirish imkonini beradi, qishloq joylarining tabiiy va madaniy diqqatga sazovor joylarini, rekreatsion imkoniyatlarini saqlab qolishga ko'maklashadi. Qishloqni rivojlantirish dasturlarida yurtimizdagi iqtisodiy o'sishning salmoqli zaxirasi bo'lgan qishloq va shahar o'rtasidagi yaqin munosabatlarni ham hisobga olish va ulardan foydalanish muhimdir.

Tabiiy landshaft muxitidan foydalanish mahalliy mahalliy o'simliklarni inobatga olgan holda va hudud iqlimiga mos yashil maydonlar yaratish qo'shimcha sug'orish va o'g'itlash ehtiyojini kamaytirishi, qurg'oqchilikka chidamliligini oshirishi mumkin.

Tabiat va texnologiya uyg'unligi. Yomg'ir suvi tizimlari, quyosh panellari va ekologik toza qurilish materiallari kabi yashil texnologiyalarni joriy etish tabiiy resurslarga yukni

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

kamaytirish va energiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. Tabiiy landshaf omilining saqlanishi va eko-estetik jihatdan barqarorlikga olib keladi.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki tabiatdan foydalanish – tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish va qayta tiklashga qaratilgan turli faoliyatlar majmuasi bo'lib, pirovardida atrof muhitga ta'sir ko'rsatadigan hamda sanoat, qishloq xo'jaligi, noishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik tadbirlarining keng va murakkab tizimidir.

Shaharsozlikda tabiiy landshaftlarni rivojlantirishda ekologik va estetik muammolarni hal etishning ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Toshkent viloyati intensiv urbanizatsiya namunasi sifatida kompleks yondashuvni, jumladan, tabiiy resurslarni saqlash va shahar aholisining hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan innovatsion yechimlarni joriy etishni talab qiladi. Landshaft arxitekturasini bu jarayonda asosiy vosita bo'lib, shahar infratuzilmasini rivojlantirish va atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan ilmiy innovatsiyalardan foydalanish nafaqat dolzarb muammolarni hal etishga, balki kelgusida mintaqaning barqaror va barkamol rivojlanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va me'moriy xujjatlari.
2. Forman, R. T. T. (1995). *Land Mosaics: The Ecology of Landscapes and Regions*. Cambridge University Press.
3. Sporn, A. W. (1984). *The Granite Garden: Urban Nature and Human Design*. Basic Books.
4. Abdulqosimov A.A., Abbosov S.B. Cho'llarning vujudga kelishi, shakllanishi va geografik tarxalishi 2007.
5. Abolin R.I. Osnovi yestestvenno – istoricheskogo rayonirovaniya Sovetskoy Sredney Azii. 1929.

BOSHLANG'ICH SINFLAR SAMARADORLIGNI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Madaliyeva Farida Tursunaliyevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
talabasi madaliyevafarida7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda boshlang'ich ta'limning samaradorlikni oshirishda zamonaviy texnologiyalardan, innovatsion yondoshuvlardan samaraliy foydalanish va kreativ yondoshuvlarni yanada takomillashtirish, interaktiv metodlardan va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish afzalliklari yoritilgan.

Kalit so'z: tarbiya, texnologiya, mehnat, interaktiv metodlar, zamonaviy texnologiyalar